



THE ISSUE OF PENCIL DRAWINGS IN AESTHETIC APPEALING IN A WORK

N. Oripov

Teacher of Karshi State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17251043>

ARTICLE INFO

Received: 14th September 2025

Accepted: 29th September 2025

Online: 30th September 2025

KEYWORDS

Pencil drawing, pencil sketch, creativity, image and effect, artistic, creative style, talent, sculpture.

ABSTRACT

This article discusses the importance of pencil drawings in achieving aesthetic appeal in a work of art. In particular, the techniques of pencil drawings, the historical development of the method of teaching pencil drawings, their content and ways of improving them are studied. In addition, the flexibility and importance of the hand in drawing are studied.

ASARDAGI ESTETIK JOZIBADORLIKDA QALAMCHIZGILAR MASALASI

N.Oripov

Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17251043>

ARTICLE INFO

Received: 14th September 2025

Accepted: 29th September 2025

Online: 30th September 2025

KEYWORDS

Qalamtasvir, qalamchizgi, ijod, tasvir va ta'sir, badiiy, ijodiy uslub, istedod, haykaltaroshlik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada san'at asaridagi estetik jozibadorlikka erishishda qalamchizgilarning ahamiyati haqida so'z boradi. Xususan qalamchizgilar bajarish texnikalari, qalamchizgilar bajarishga o'rgatish metodukarisning tarixiy taraqqiyoti, mazmuni va uni takomillashtirish yo'llari o'rganilgan. Shunindek rasm chizishda qo'l egiluvchaligi va ahamiyati o'rganilgan.

Kirish. Tasviriy san'at asarlaridagi badiiy, mantiqiy hamda estetik jozibadorlikdan tasirlanish tomoshabinnig faoliyat darajasiga ta'sirini o'tkazadi va shular bilan tasviriy san'at o'z vazifasini ma'lum manoda bajargan hisoblanadi. Asardagi estetik jozibadorlikka erishishda boshqa ko'plab omillar qatori qalamchizgilarning ahamiyati ham katta hisoblanadi. Rasm chizishda qo'l harakatlarining egiluvchanligiga etibor qaratish zarur bo'ladi, busiz chizmoqchi bo'lgan asarda estetik jozibadorlikka erishib bo'lmaydi. O'quvchilarda qalamchizgilar bajarish ko'nikmalarining shakllanishi va qo'l harakatkari egiluvchanligini paydo qilish metodlari haqida fikr yuritmoqchimiz.

Adabiyotlar tahlili. Rassomni tarbiyalash va uning badiiy hamda estetik mahoratini shakllantirishda qalamchizgilar bajarish muhim hisoblanadi. Shakl



xususiyatini, uning ifodaliligini ilg'ab olish va rasmning maqul tasviriy vositalari bilan ularni "muhrlash" - zaruratdir.

O'quvchilar davomli rasm chizishning tahliliy usulida modelni ko'rib chiqadilar, hamda uni xayolan tarkibiy qismlarga bo'ladilar, ularni o'zaro taqqoslaydilar, o'lchaydilar. Ular naturadan uzoq muddatli rasm chizishda model konstruksiyasini hali yaxshi bilmaydilar, lekin uni-ustozlari yordamida idrok etadilar. O'quvchi chizgining o'zidayoq model qurilishining xususiyatlarini bilishi va ana shu bilim asosida uning obrazli jihatlarini ochib berishi kerak bo'ladi. Chizgi - natura haqida aniq mulohaza yuritishdirki, u avval olingan bilim, konikma va malakalar asosida tekshiriladi. Qalam chizgilarda, eng avvalo, natura qurilishining qonun-qoidalari ko'rinishi lozim. Shu boisdan ham naturadan akademik rasm chizish va davomli rasm ishlash bilan parallel ravishda qalamchizgilar bajarish ishini ham muntazam olib borish kerak bo'ladi. Ammo chizgilar ustida ishlayotganda o'z oldingizga ma'lum vazifalarni ham qo'ying. Chizgilarni faqat "chizgi uchun" chizmang, talabalarning aksariyati chizgilarga ko'r-ko'rona yondoshadilar, ular bitta vazifani - sifatni emas, balki miqdorni ushlab oladilar. Ular yuzlab chizgilar chizib, ulardan besh-oltitasini tanlab olaman, deb o'ylaydilar.

Bunday usul rassomga ko'p narsa bermaydi. Chizgi o'quv materialini o'zlashtirishga yordam berishi kerak. Chizgi - naturani tezgina xomaki chizishdir; u boshlovchi rassomni tez fikrlashga, yorqin ifodalash vositalarini topishga o'rgatadi, qo'l bo'g'inlari egiluvchanligini rivojlantiradi, nigoh va nazar tashlashni rivojlantiradi.¹

Rasm ishlashda chiziq asosiy tasvir vositasi bo'lib, uning xarakterli tomonlari rassom uchun ma'lum ish quroli yoki vosita vazifasini o'taydi. Rassomning u yoki bu vazifani haqqoniy bajarishi - chiziqni qaysi yoki qanday uslub va qog'oz sirtida qanday bosimda yurguzib hosil qilishiga bog'liq hisoblanadi. Rasmdagi chiziq erkin va turli xil bo'lishi: ba'zan kuchli, birlamchi va qora, ba'zan yengil, biroz bilinar-bilinmas bo'lishi mumkindir. Qattiq bosib hosil qilingan chiziq ko'proq buyumning soya qismlarini to'q tusga kiritish ma'lum bir bosqich bo'lib hisoblanadi. Yengil tusga ega chiziq (qattiq bosmasdan chizilgan chiziq) har bir vazifaning dastlabki bosqichi uchun xarakterlidir. U tasvirni qog'oz yuzasida umumiy joylashtirish va buyumlarning kompozitsiya jihatdan o'rnini aniqlashda, umumiy konturni belgilashda hamda nisbatlarni ko'rsatishda yordamchi chiziq vazifasini bajaradi. Yosh rassom o'z mahoratini shakllantirishi va tasviriy san'atdagi texnik harakatlarini rivojlantirishi va ko'z bilan chamalash qobiliyatlarini o'stirishi uchun bir qator mashqlarni bajarishi lozim: turli chiziq orqali buyum shakllarini alohida chizish, shaklga hajm berishda shtrixlar orasidagi oraliqlarning bir xilligiga erishish va shu kabilar. To'g'ri chiziq qo'lni uzmasdan (shaklning boshidan oxirigacha butun holda) chizish talab etiladi, egri chiziqni esa (sferik hajmlarda), yarim yoy, siniq chiziq orqali chizish maqsadga muvofiqdir. Tasvirdagi ba'zi bir tuzatishlarni imkoni boricha o'chirg'ich ishlatmasdan amalga oshirish kerak. Garchi, tasvir to'g'ri chizilgan bo'lib, agar u faqat bir xil qalinlikdagi chiziqlardan iborat bo'lsa, albatta, qumq qalamga aylanib qoladi va unga qanchalik

¹ Boymetov B. Qalamtasvir. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Musiqa nashriyoti. T., 2006



darajada hajm mukammal bo'lishiga qaramasdan, tomoshabinda yoqimsiz taassurot qoldiradi. Chunki buyum shaklning atrofi quruq konturlardan iborat bo'ladi. Bu haqda o'tmishda yashab ijod etgan buyuk rassomlar o'z fikrlarini shunday bayon etganlar: «Shuni yodda tutingki, shaklda chiziq yo'q, ammo hajm mavjud, rasm chizayotganingizda kontumi emas, relyef haqida o'ylang. Chunki relyef kontumi boshqaradi». Tasviriy san'at, xususan, qalamtasvir ham musiqa kabi o'z ohanglariga ega. Haqiqiy maqomchi yoki sozanda, ijro davomida qo'shiqning alohida joylariga ovoz va kuyni balandlatib yoxud pastlatib urg'u bergani kabi, tasviriy san'atda ham rassom naturaga qo'yilgan shakllarning asosiy joylariga ko'proq e'tibor bergan holda bo'rttirib ko'rsatishi va aksincha, ikkinchi darajali qismlarini bilinear - bilinmas qilib tasvirlashi kerak. Shundagina asar haqqoniy chiqadi va tomoshabinga manzur bo'ladi. Aytish mumkinki, tasvirdagi chiziqlar ham ohangdor bo'lishi lozim: Shaklning kenglikdagi harakatini ifodalashda, chiziq ijodiy mohiyatining rassom chizayotgan rasmdagi ko'rinishi alohida musiqiy va ta'sirli mazmun aks ettiradi. O'tmishda yashab ijod etgan Leonardo da Vinchi, Albrect Dyurcr, Mikelandjelo Buanorotti, Rafael Santi kabi mashhur rassomlar tomonidan ishlangan asarlar buning isbotidir. Ularni o'rganish davomida turli xarakterdagi chiziqlarni ko'rishimiz mumkin. Ular ba'zan siyraklashib, ba'zan quyug'lashib, kengayib boradi. Ushbu rassomlar qalamni turli holatlarda, bosimda va burchakda ushlab, ingichka keng chiziqlarni hosil qilishgan. Ingichka, zo'rg'a ko'zga ilinadigan chiziqlar shakl atrofida, yorug'-soya chegaralarida bo'ladi va jismga yorug'lik tushayotganligini bildiradi. Qalin, to'q chiziqlar esa, shaklning soya tushgan yuzasini ko'rsatadi. Turli xarakterdagi chiziqlar chizilayotgan buyumning hajmi, unga tushayotgan yorug'lik miqdori va uning joylashgan o'rnini ifodalash hamda plastik xususiyatlarini tezda hal etish imkonini beradi. Chiziq xarakteri ma'lum miqdorda material va ish quroliga - qog'oz yuzasi va zichligiga, grafitning qattiqligiga ham bog'liq hisoblanadi. Qalam, ko'mir, sangina yengil va nafis chiziq hosil qiladi; pero, flomaster, mo'yqalam - nisbatan to'q, dag'al chiziqlar chizishda ishlatiladi. Agar oppoq tus kerak bo'lsa, yumshoq o'chirg'ichni mahkam ushlab, u tez-tez harakat bilan yurgiziladi. Ochroq tus hosil qilish uchun o'chirg'ich yordamida ortiqcha grafitni o'chirib tashlash kifoya qiladi. Tush rasmlarda shtrixning qahnhgi va xarakteri jismning u yoki bu qismini tasvirlash darajasiga ko'ra, turlicha bo'lishi mumkin. Qalamga beriladigan bosim shtrix xarakterini belgilaydi.² Ayrim yoshlarda tasviriy san'at fanlari bo'yicha amaliy vazifalar bajarish jarayonida naturaga qo'yilgan buyumlarni to'la-to'kis idrok eta olmaslik hohari ham uchrab turadi. Bu vaqtda o'qituvchi tasvirlash uchun naturaga qo'yilgan buyumlarning sodda yoki murakkab shakllardan tuzilgan bo'Tishidan qat'iy nazar, ularga yetarh darajada tushuntirib, qo'yilgan maqsadni belgilab olishi lozim. Buning uchun o'quvchilarga naturani turli nuqtalardan kuzatish va shu asosda 5-10 daqiqalik qalamchizgilar bajarishni tavsiya etish kerak. Qo'yilgan naturani turli nuqtalardan kuzatish va qalamchizgilar bajarish o'quvchida tasvirlanadigan buyumlarni sezib idrok etish, uning xarakterli xususiyatlarini aniqlab, buyumlarning hajm materiallik

² Boymetov B. Qalamtasvir. Pedagogika yo'na- lishidagi kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. T.: - «ILM ZIYO», 2007. - 192 b.



xususiyatlari, birining ikkinchisiga nisbati, ulaming buyum te kisligida joylashuvi kabilarni tasavur etishga o'rgatadi.³

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni ham aytish kerakki tasviriy san'atda estetik jozibadorlikka erishish uchun tez qalamchizgida va qo'l harakatlari egiluvchanligiga erishish maqsadli aniq ishlab chiqilgan dasturiy faoliyatni amalga oshirilishni talab qiladi. Shu manoda takidlash mumkinki tezqalamchizgilarni uy vazifalari sifatida bajarish bilan birga auditoriyaning o'zida ham o'qituvchi nazorati va tavsiyalari asosida ko'proq bajarilishi samarali natijalarni beradi. Shuningdek o'quvchilarni malum bir aniq naturani chizish bilan birga ixtiyoriy ravshda hech qanday qoidalarsiz faqat qo'lning erkin va egiluvchanligini taminlash maqsadiga yo'naltiruvchi topshiriqlar ham berib borilaishi kerak. Unutmaslik kerakki tez qalamchizgilarni ko'plab bajarish bilan birga to'g'ri va aniq bajarish yaxshiroq natijaga ega hisoblanadi.

References:

1. Boymetov B. Qalamtasvir. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Musiqa nashriyoti. T.: - 2006
2. Boymetov B. Qalamtasvir. Pedagogika yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. T.: - «ILM ZIYO», 2007. - 192 b.
3. Boymetov B. Haykaltaroshlik va plastik anatomiya. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2007. - 120 b.
4. B.Boymetov. Haykaltaroshlik. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2003
5. Qorjovov Bobur Jovliyevich. Философские основы феномена творчества в художественном восприятии произведений изобразительного искусства. SCIENCE AND WORLD International scientific journal 2019.
6. Qorjovov Bobur Jovliyevich. Composition, Artistic Harmony and Logical Solution in Karl Pavlovich Bryullov's "The Last Day of Pompey", International Journal of Psychosocial Rehabilitationcv ISSN:1475-7192.
7. I.B.Kamolov, B.J.Qorjovov "THE INTERPRETATION OF INSIGHT AND THE EXPERIENCE OF HUMAN IN THE ARTIST KAZIMIR MALEVICH'S "BLACK SQUARE", 2022 yil iyul Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities ISSN2749-0866 Vol.2 Issue 1.7 Philosophy sciences.
8. Oripov Ne'matilla, Turaev Ilhom. Ein Ton aus schönen Farben, die in Transparenz glänzen. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities ISSN 2749-0866 Vol.2 Issue 1.7 Philosophy sciences <http://berlinstudies.de/10.5281/zenodo.6591807> 29
9. Oripov Ne'matilla Chuliyevich. Steigerung der Beobachtungsfähigkeit und Sensibilität der Studierenden im Bereich Bildende Kunst. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities ISSN 2749-0866 Vol.2 Issue 1.9 Psychology sciences <http://berlinstudies.de>
10. Kamolov Iftixor Baxtiyorovich, Qarshi davlat universiteti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası mudiri, dotsent,

³ Boymetov B. Qalamtasvir. Pedagogika yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. T.: - «ILM ZIYO», 2007. - 192 b.



11. Oripov Ne'matilla Chuliyevich, Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi
12. AN'ANAVIY AMALIY SAN'ATDA BADIY BEZAKNING O'RNI. PEDAGOGIKA 2022, 3-son